

**ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARLARIDA BADIY
TAFAKKUR VA TASVIRIYLIKNING TAMOIYILI**

Musayeva Laylo

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Namangan filiali maxsus pedagogika

Yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Laylo200612@icloud.com

+998883272212

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy "Xamsa"sining yaratilishi va XIV-XV asrlarda yashab ijod etgan xamsanavis shoirlar haqidadir. Bu adiblar haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", professor Y.E.Bertelsning "Jami" professor Sh.Muhamedovning "Xazinalar jilosi", filologiya fanlari doktori Dilnavoz Yusupovaning "O'zbek mumtoz adabiyoti" (Alisher Navoiy davri) qo'llanmasida ma'lumotlar bor. Maqola muallifi mana shu asarlarga tayangan holda to'liq "Xamsa" oltita va bir nechtagina doston yozgan xamsanavislardan sakkizta haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatib bergan.

Kalit soʻzlar: anʼana, sivilizatsiya, fors-tojik adabiyoti, mumtoz adabiyot, mashhur, doʻstlik, mutafakkir, ijodkor, Sharq.

ABSTRACT

This article is about the creation of Alisher Navoi's "Khamsa" and the Khamsa writers who lived and worked in the XIV–XV centuries. These writers are mentioned in Alisher Navoi's "Majlis un-nafois", Professor Bertels' "Jami", Professor Sh. Muhamedov's "Khazinalar zhilosi" and Doctor of Philology Dilnavoz Yusupova's "Uzbek Classical Literature" (Alisher Navoi period). Based on these works, the author of the article provided information about six of the complete Khamsa writers and eight of the Khamsa authors who wrote only a few epics.

Keywords: tradition, civilization, Persian-Tajik literature, classical literature, famous, friendship, thinker, creator, East.

Kirish

Millatimizning gʻururi va iftixori boʻlgan oʻzbek mumtoz adabiyotini xalqaro maydondagi nufuzini oshirib dunyo miqyosida yanada rivojlantirish uchun davlatimiz rahbari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qarorlarning ahamiyati kattadir. Muhtaram yurtboshimizning Oliy Majlisga murojaatnomasida aytilgan fikrlar biz oʻqituvchilarning oldimizga ham katta masʼuliyat yukladi. Soʻnggi yillarda milliy qadriyatlarni tiklash va mumtoz adabiyot tarixi bilan bogʻliq barkamol avlodni maʼnaviy kamolotga erishtirish masalalariga

katta e'tibor berilmoqda. Musulmon Sharqi epik poeziyasi tarixi xamsachilik an'anasi bilan chambarchas bog'liq. Dastavval XII asrda vujudga kelgan xamsa janri sakkiz asrga yaqin vaqt davomida yuzlab javob dostonlarga ega bo'ldi. Sharq adabiyotida birinchi bo'lib "Xamsa" yozgan shaxs buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviydir. U 1170–1204-yillar oralig'ida birin-ketin 5 ta doston yaratdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, "Panj ganj" ("Besh xazina") deb atala boshlandi va keyinchalik xamsa nomi bilan mashhur bo'ldi.

"Xamsa" yozish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo'ladi:

Besh dostonlardan tashkil topmog'i.

Birinchi doston, albatta, pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmog'i.

Ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanmog'i.

Uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog'i.

To'rtinchi doston Bahrom, beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog'i shart edi.

Alisher Navoiy bu jihatdan ham Nizomiy Ganjaviy an'anasiga amal qildi. Eng muhimi, Navoiyning "Xamsa"si turkiy-o'zbek tilida yozilgan bo'lib, undan turkiyzabon kitobxon bahra olishi uchun imkon yaratildi. Agar Nizomiy Ganjaviy fors tilidagi Xamsani hayot taqozosi bilan 27 yilda (1174–1201) yozgan bo'lsa, Navoiy o'zbek tilidagi "Xamsa"ni ikki yildan ortiqroq (1483–1485) muddatda tugatishga erishdi. [O. Madayev 2018, 158]

Jahon sivilizatsiyasi tarixida ayniqsa, Sharqda alohida o'rin tutadigan xamsachilik an'anasi va Alisher Navoiy "Xamsa"si o'zbek mumtoz adabiyotining rivojlanishida yuksak ahamiyatga ega. Sharq epik poeziyasining gultoji hisoblangan "Xamsa"ga kirgan dostonlar musulmonlar Sharqi xalqlarini har doim qiziqtirib kelgan. Ana shuning uchun ham Sharq Renessansi davrida juda ko'p insonlar "Xamsa" yozishga harakat qilganlar. Bu davrlarda 300 ga yaqin ijodkorlar Nizomiy beshligiga muayyan tarzda javob yozganlarini ozarbayjon olimi, filologiya fanlari doktori G'azanfar Aliyev aniqlab, o'zining "Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока" nomli monografiyasini yaratgan edi. Shoirning "Panj ganj"iga kiruvchi "Layli va Majnun" hamda "Xusrav va Shirin" dostonlari ham o'zbekchalashtirilgan. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si yaratilgandan keyin oradan bir asr vaqt o'tib Amir Xusrav Dehlaviy Nizomiy asariga javob yozish bilan xamsanavislik an'anasini boshlab berdi.

[Донишмандлар тухфаси, 2009: 97]

Dehlaviyning 1299–1302 yillarda yozilib, Alouddin Xiljiyga bag'ishlangan "Xamsa"si quyidagi dostonlarni o'z ichiga oladi: "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning chiqish joyi"), "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Aina'i Iskandariy" ("Iskandar oynasi"), "Hasht bihisht" ("Sakkiz jannat"). U Nizomiy dostonlarining shakli va syujeti, obrazlar silsilasini saqlagan holda, ularni o'ziga xos talqin etdi va yangi mazmun bilan boyitdi. Nizomiy dostonlari shoir dunyoqarashining kengligi va

bilimining teranligini namoyish etsa, Xusrav Dehlaviy “Xamsa”si ruhiy teranligi va qalb boyligini ko‘z-ko‘z qiladi. Nizomiy dostonlarida tafakkur va tuyg‘unusbatini ko‘rsak, Xusrav Dehlaviy “Xamsa”sida inson qalbining nozik tebranishlari va badiiyat uyg‘unligining hassos va go‘zal tasvirlariga duch kelamiz. Aynan san’atkorona ishlanganligi uchun ham Xusrav Dehlaviy “Xamsa”si o‘zidan keyingi shoirlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, xalaflari goya va mazmunda Nizomiyga ergashsalar ham, shakl va badiiyatda Xusrav Dehlaviyga izdoshliq qildilar. Jomiyning “Bahoriston”da e’tirof etishicha, hech kim Nizomiy “Xamsa”siga Xusrav Dehlaviydan o‘tkazib javob yoza olmagan.

[Донишмандлар тухфаси, 2009: 235]

Navoiy o‘z “Xamsa”sini yaratishda Nizomiy bilan bir qatorda, Xusrav Dehlaviyning ham kuchli ta’sirlangan, har bir dostoni muqaddimasida uni ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga olib, ijodiga yuksak baho bergan.

Temur va Shohrux zamonida yashagan Jomiyoning tavalludi va vafot yillari haqida aniq ma’lumot yo‘q. Faqat G‘. Aliev o‘zining “Temi i syujeti Nizami v literaturax narodov Vostoka” nomli monografiyasida uning beshligi 1402–1417 yillar oralig‘ida yaratilgan degan fikrni bildiradi. Jomiy “Xamsa”si quyidagi dostonlardan iborat: “Tuhfat ul-abror” (“Maxzan ul-asror”ga javob), “Mehru Nigop” (“Xusrav va Shirin”ga tatabbu‘), “Mahzun va Mahbub” (“Layli va Majnun”ga tatabbu‘), “Haft avrang” (“Haft paykar”ga tatabbu‘). Doston nomi aniq emas. Lekin voqealar mazmuni va qo‘llanilgan vazn Nizomiy “Iskandarnoma”sini eslatgani uchun, uni Nizomiy beshligidagi so‘nggi dostonga javob tarzida yozilgan deb hisoblash mumkin.

Ashraf — Abu Ali Husan ibn Hasan Marog‘iy. Darvesh Hasan Xiyoboniy (tug‘ilgan vaqti noma’lum — vaf. 1460) nomi bilan tanilgan. 1436–1440 yillar mobaynida “Xamsa” an’anasini davom ettirgan. “Minhoj ul-abror” (Taqvodorlarning yo‘li), “Riyozi ul oshiqayn” (Ikki oshiqning mashaqqatlari), “Shirin va Xusrav”, “Ishqnoma” yoki “Layli va Majnun” ,

«Ishqnoma» yoki «Layli va Majnun», «Haft avrang» (Etti taxt) va «Zafarnoma» nomli «Xamsa» tarkibidagi dostonlarni yozgan. Shoirning she’rlar devoni va «Sad pandi Ali» (Alining yuz pandi) nomli Hazrat Ali hikmatlarining tarjimasi bo‘lgan manzuma ham mavjud. Aftidan bu oxirgi asari Navoiyning «Nazm ul-javohir» nomli asariga o‘xshash ko‘rinadi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Ashraf haqida yozadi va Hirotda bo‘lganini ta’kidlaydi. Shoir «Xamsa» ustida uzoq yillar mehnat qilgani va nihoyat uni tugallashga noil bo‘lgani xususida Navoiy Ashrafning quyidagi baytini keltiradi:

Az sharafi vasli tu Ashraf shudem,

Davlati mo bud musharraf shudem.

(Tarj.: Sening vasling sharafi bilan Ashraf (ya’ni, sharafli) bo‘ldik, bu biz uchun davlat edi musharraf bo‘ldik). [Навоӣ, 1997:219]

Fors-tojik adabiyotining oltin davrini yakunlagan zabardast soʻz sanʼatkori, ulugʻ mutafakkir, naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy Nishopur yaqinidagi Jom shahrida ruhoniylar oilasida tugʻilib, Hirotida yashagan hamda shu yerda mashhur shoir va mutafakkir boʻlib yetishgan. U Hirotida Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi olimlar qoʻlida tahsil oladi. Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasida Mirzo Ulugʻbek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi qomusiy olimlar maʼruzalarini eshitishga muyassar boʻladi. Mashhur mudarris Fazlulloh Abullaysdan fiqh, Qurʼon, hadis va arab tili boʻyicha saboq oladi.

Alisher Navoiyning yozishicha, Jomiy garchi zohir yuzidan Saʼdiddin Koshgʻariy muridi boʻlsa-da, aslida uvaysiyboʻlib, Bahouddin Naqshband ruhoniylaridan tarbiya topgan, zamona mashoyixi Xoja Muhammad Porso nazariga tushgan, Xoja Abu Nasr Porso, Xoja Muhammad Kusaviy, Mavlono Boyazid Puroniy, Mavlono Muhammad Asar, Mavlono Muhammad Tabodgoniy, Shayx Shoh Ziyoratgohiy va Mavlono Muhammad Amin Koʻhistoni kabi oʻz davrining ulugʻ shayxlari bilan muloqot qilgan. Xoja Ahror Vali bilan yaqin munosabatda boʻlgan.

1476 yili Alisher Navoiy unga murid tushib, rasman naqshbandiya tariqatiga kiradi. Jomiy 7 ta doston yozib, ularni «Haft avrang» («Etti taxt») nomi bilan atagan: «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjirlar»), «Tuhfat ul-ahror» («Yaxshilar tuhfası»), «Sibhat ul-abror» («Taqvodorlar tasbehi»), «Yusuf va Zulayxo», «Layli va Majnun», «Salomon va Abso», «Khiradnomai Iskandar» («Iskandar pandnomasi»).

Navoiy «Xamsa»si uch yuz yillik tajriba va anʼanaga ega boʻlgan xamsachilik taraqqiyotida yangi va yirik voqea boʻldi.

Navoiy ustoz xamsanavislarning yuksak sanʼatkorligini eʼtirof qiladi va sharaflaydi, ularning adabiy tajribasidan taʼlim oladi. Dostonlarning muqaddima qismida Nizomiy va Xusrav Dehlaviyaga hamda oʻzi bilan deyarli bir vaqtda xamsa yaratgan Abdurahmon Jomiyga bagʻishlab maxsus boblar yozib, ularni ulugʻlaydi. U:

Yoʻldasa bu yoʻlda Nizomiy yoʻlum,

Yoʻldasa Xusrav bila Jomiy qoʻlum,

— deb ulardan madad tilaydi. Biroq Navoiy hech qachon xamsanavis salaflarining dostonlarini takrorlashga yoki ularga tobelarcha taqlid qilishga intilmaydi. U oʻz oldiga yangi va original xamsa yaratish vazifasini qoʻyadi. Buni Navoiy bot-bot taʼkidlaydi. Xamsanavis salaflarining ijodiy yutuqlarini eʼtirof qilgan va sharaflagan Navoiy ularning dostonlardagi nuqsonlarga befarq qaramaydi. U salaflarining jüzʼiy kamchiliklarini emas, balki jiddiyroq kamchiliklarini topadi va xolisona tanqid qiladi.

Navoiy «Xamsa»ni yaratishda tarixiy manbalardan va xususan xalq ogʻzaki ijodi boyliklaridan, xalq afsonalari, ertaklari, qoʻshiqlari, maqol va hikmatli soʻzlari hamda xalq asarlarining badiiy uslubidan mohirlik bilan foydalandi.

Navoiy juda og'ir va juda mas'uliyatli ishga kirishgan edi. U Yaqin va O'rta Sharq o'lkalarida ustoz so'z san'atkori sifatida shuhrat topgan Nizomiy va Xusrav Dehlaviy bilan ijodiy bahslashdi. Bu juda katta bilim va yuqsak adabiy didni, iste'dod va qobiliyatni talab etar edi. U og'ir va mas'uliyatli bu vazifani sharaf bilan bajardi, adabiyot maydonida sher bilan olishgan sher bo'lib chiqdi. Navoiy xamsanavis salafilariga ijodiy yondashdi, dostonlarda yashagan tarixiy sharoitning aktual masalalarini mavzu qilib oldi, el-yurt uchun muhim ahamiyatga molik masalalar haqida fikr yuritdi, uning aqlzakovati kelajakka parvoz etib, insonning istiqboliga katta umid bilan boqdi, hayot haqiqati romantik orzu-armonlari bilan chatishdi, qahramonlari umumbashariy xislatlar bilan kamol topdi, yangi-yangi situatsiya, syujet va kompozitsiya, obraz va xarakterlar yaratdi, badiiy so'z takomilida yangi boblar kashf etdi, o'zbek adabiy tili istiqboli uchun kurash bayrog'ini yuqsak ko'tardi. Navoiy «Xamsa»sining ulug'vorligi, shon-shuhrati va olamshumulligi ham shunda.

XIV-XV asrlarda «Xamsa» ning ba'zi dostonlariga javob yozgan ijodkorlar haqida fikr yuritamiz.

Abdullo Xotafiy. Bu shoirning dostonlari avvalgilardikidan mashhurroq. U to'rt dostonni yozib tamomlagan, bulardan ba'zilar nashr etilgan.

U «Xamsa» boshlashdan oldin tog'asi Abdurahmon Jomiy yoniga borib, undan fотиha so'raydi. Jomiy unga Firdavsiyning «bir she'rini berib, shunga nazira yozib kel», — deydi. Xotafiy bu sinovdan yaxshi o'tadi, Shundaygina Jomiy unga fотиha beradi. U «Laylo va Majnun», «Haft manzar», «Temurnoma» dostonlarini yozgan. Hayotining oxirida shoh Ismoil Safaviyning harbiy yurishlariga bag'ishlangan «Shohnoma» yoza boshlagan, ammo bu asar tamomlanmay qolgan. Shoir 1521 yilda vafot etgan.

Kotibiy Turshiziy. Bu shoir haqida ham Alisher Navoiy ancha qimmatli ma'lumotlar qoldirgan.

Navoiy uni: «o'z zamonining benaziri», deb yuqsak baho beradi. Uning masnaviylaridan ko'ra, g'azaliyoti va qasidaları devoni mashhurroq, deydi. U tajnislar nashlatishda, qo'sh qofiyali va qo'sh vaznli she'rlar yozishda mohir bo'lgan.

Shoir umrining oxirida «Xamsa» yozishga kirishgan ammo tugatolmagan. Uning «Gulshani abror» va «Layli va Majnun» dostonlari qolgan.

Bu shoir umrining oxirida Astrobodda vabo kasalidan vafot etgan. O'limi oldidan quyidagi qit'ani aytib ketgan:

Zi otashin qahri vabo gardid nogahon xarob,
Astrobodiki kokosh buvad xushbo'tar zi mushk,
Andaru az piru barno hech kas boqı namond,
Otash andar besha chun afad na tar monand na xo'shk,
(Tuprogi mushkdan ham xush bo'yli Astrobod,
Qahrli vabo o'tida birdan xarob bo'ldi.
Unda qariyu yoshdan hech kim qolmadi,

Chunki to‘qayga o‘t tushsa, ho‘lu quruq barobar yonadi.)

Badriddin Hiloliy asli Astrobodli bo‘lgan bu ijodkor XV asrning 70-yillarida tug‘ilgan bo‘lib 1529 yilda qatl etilgan. «Xamsa» dostonlariga javoban yozilgan 2 ta dostoni bor: «Sifat ul-oshiqin» («Maxsan ul-asror»)ga javob, «Layli va Majnun».

Mavlono Ali Ohiy. Mashhurlik bu shoir haqida Alisher Navoiy «Majolisun nafois»da quyidagi xabarni beradi: «Mavlono Ali Ohiy – Mashhadidindur, «Xamsa» muqobalasida necha masnavi aynidurkim, chun muqobolagi keltursa, go‘yoki bo‘lmas, ul jihatdan shuhrat tutmaydur. «Xayol va visol» otliq kitobida bir bayti bor, magarkim mulhimi g‘ayb uning tiliga she‘r bobida solg‘ondirkim (ya‘ni g‘aybdan ilhom beruvchi bu baytni uning o‘z she‘ri haqida tiliga solgan):

She‘ri ki buvad en nuqta soda,

Monad hama umr yak sovoda»

(She‘rda koziklik bo‘lmasa,

Butun umrga qoralanma bo‘lib qoladi.)

Navoiy uning xamsadan necha doston aytmaydi, faqat she‘rlari haqida uning o‘z asarlaridan olgan bayt bilan baho berib qo‘ya qoladi.

Mavlono Fasih Rumiy. Alisher bu kishi haqida ham qisqa ma‘lumot berib, uni: «donishmand kishi erdi... Xoja Salimonning masnu’ qasidasiga tatabbu’ qilibdur...» <https://cyberlelinka.ru>

XULOSA

Alisher Navoiy yaratgan “Xamsa” Sharq mumtoz adabiyotining badiiy yuksak cho‘qqisi bo‘lib, unda tasviriylik, badiiy tafakkur, obrazlilik va poetik mahorat nihoyatda takomillashgan holda namoyon bo‘ladi. Har bir doston – “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” – alohida badiiy olam bo‘lib, ularda inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar, muhabbat, ijtimoiy adolat, ma‘naviy kamolot va davlat boshqaruvi masalalari chuqur falsafiy mazmunda yoritilgan. Navoiy tasviriylikda rang-baranglik, aniqlik, jonlilik va detallar uyg‘unligiga tayanadi. Obrazlar psixologizmi, voqealarning tasviriy kuchi, tabiat manzaralarining badiiy tahlili dostonlarning mazmunini yanada boyitadi. Shoirning tasviriy mahorati faqat voqealarni bayon qilishda emas, balki ruhiy kechinmalarni badiiy ifodalashda ham o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan. “Xamsa”da badiiy tafakkur o‘zining nihoyatda keng falsafiy ko‘lami, fikrning teranligi, ma‘no qatlamlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Navoiy timsollar tizimi, metaforalar, tashbehlar, isti‘ora va boshqa san‘at vositalarini nihoyatda mukammal darajada qo‘llaydi. Bu esa dostonlarda poetik tafakkurning yuksalishini ta‘minlaydi va asarlarni butun Sharq adabiyotida tengsiz darajaga olib chiqadi. Natijada “Xamsa” Sharq adabiy tafakkurining yuksalishida beqiyos ahamiyat kasb etgan, turkiy adabiyotning badiiy imkoniyatlarini juda yuqori darajada namoyish qilgan betakror yodgorlik sifatida

qadrlanadi. Undagi tasviriylilikning mukammalligi va badiiy tafakkurning chuqurligi Navoiy ijodining buyukligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, turli yillarda nashrlari.
2. Navoiy, A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2003.
3. Abdug'afurov, A. Alisher Navoiy badiiy tafakkuri. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Qo'shjonov, M. Alisher Navoiy. – Toshkent: Sharq, 1998.
5. Orifjonova, Z. Navoiy "Xamsa"sining badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2010.
6. Xudoyberdiyev, A. Navoiyshunoslik asoslari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi ToshDU nashri, 2014.
7. Sirojiddinov, S. Sharq mumtoz adabiyotida badiiy tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
8. Zohidov, Z. Navoiy dostonlarining poetikasi. – Toshkent: Fan, 1970.
9. Shodmonov, Y. Mumtoz adabiyot poetikasi va tahlili. – Toshkent: Sharq, 2016.
10. Bertels, E. Navoiy va uning ijodi. – Moskva: Nauka, 1962.
11. Sirojiddinov S., To'xliyeva D. "Navoiy 'Xamsa'sining poetik xususiyatlari". – O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021.
12. Qosimova D. "Farhod va Shirin" dostonida obrazlar tizimi". – Filologiya masalalari, 2020.
13. Mamajonov A. "Navoiyda tasviriylilikning psixologik talqini". – Adabiyotshunoslik tadqiqotlari, 2019.
14. Ochilov, E. Donishmandlar tuhfası. – Toshkent: O'zbekiston, nashr yili (aniq yili ko'rsatiladi).